



Axborot xabarnomamizning oltinchi soniga xush kelibsiz!

[Yevropa Ittifoqining](#) (YI) [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasi bo'yicha axborot xabarnomamizning oltinchi soniga xush kelibsiz. Bizning loyihamiz O'zbekistonning [Jahon savdo tashkilotiga](#) (JST) a'zo bo'lishligi orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha rivojlanish rejalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Joriy xabarnoma 2022 yilning yanvar-mart oylarida bo'lgan tadbirlar haqida ma'lumot beradi. Ushbu davrda ayniqsa xizmatlar savdosiga texnik ko'mak ko'rsatish bo'yicha bir qator tadbirlar bo'lib o'tdi. Jumladan, fevral va mart oylaridagi tadbirlardan distribyutsiya, atrof-muhitni himoya qilish, telekommunikatsiya, pochta va yetkazib berish hamda audiovizual xizmatlar o'rin oldi. Mamlakatdagi muzokara ishtirokchilarining ehtiyojidan kelib chiqib qo'shimcha seminarlar o'tkazilishi kutilmoqda.

Ushbu chorakda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (ITSV) mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan 15ta qonun hujjatining ko'rib chiqilishini so'rab loyihaga murojaat qildi. Ushbu tadbirlar qonunlarni JST qoidalariga mos keltirish uchun ularga o'zgartirishlar kiritishni ko'zda tutadi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу обунани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

JSTga a'zo bo'lish jarayonida mamlakat tashkilot a'zolarini o'zining savdo va iqtisodiy siyosati haqida boxabar qilishi kerak. Ushbu ma'lumotlar muzokaralarning o'zagini tashkil qiladi. Shu sababli loyiha O'zbekistonga a'zo bo'lish jarayonida kerak bo'ladigan hujjatlarni tayyorlash va ko'rib chiqishda yordam beradi. So'nggi uch oyda tashkilotga avvalroq taqdim qilingan ba'zi hujjatlar bo'yicha konsultativ yordam ko'rsatildi. Ushbu hujjatlar qatoridan imtiyozlar va tarif majburiyatlari ro'yxati, qishloq xo'jaligini qo'llab- quvvatlash bo'yicha jadvallar, subsidiyalar haqida bildirishnomahamda davlat savdo korxonalari haqida so'rovnoma o'rin olgan.

Shu bilan birga, xizmatlar savdosi bo'yicha muzokaralarni qo'llab-quvvatlash maqsadida distribyutorlik xizmatlari sohasini regulyativ baholash bo'yicha ishlar yo'lga qo'yildi. Ushbu tadbirlar O'zbekistonga distribyutor xizmatlari sohasidagi majburiyatlar ro'yhatini shakllantirishda yordam beradi. Mamlakatda amaldagi xizmatlar savdosi rejimini o'rganish maqsadida moliyaviy va telekommunikatsiya sohalariga regulyativ baho berish bo'yicha ko'lamli ishlar olib borildi.

COVID-19 bilan bog'liq cheklovlar davrida ITSV vakillarining JST muzokaralarida ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida loyiha kerakli axborot uskuna va jihozlarini sotib olishda yordam ko'rsatdi. Jami 2022 yilning yanvar oyida manfaatdor tashkilotlarning ehtiyojlarini qondirish uchun 17ta jihoz sotib olindi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lishning eng muhim talablaridan biri muayyan milliy qonunlarning JST shartnomalariga muvofiqligini ta'minlashdan iborat. Loyiha intellektual mulk huquqlari bo'yicha O'zbekiston milliy qonunchiligini JSTning TRIPS shartnomasi va intellektual mulk bo'yicha tegishli xalqaro konvensiyalarning, ya'ni Parij konvensiyasi va Bern konvensiyasi talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan tahlil qilish ishini davom etdi. Loyiha doirasida amaldagi milliy qonunchilikni JST talablariga mos keltirish bo'yicha ishlar davom etadi.

Shu bilan birga, loyihaga mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunlarni tahlil qilish bo'yicha so'rov kelib tushdi. JST qoidalariga mos kelishini tekshirish maqsadida 15ta qonun tahlil uchun saralab olindi. Tahlil ishini samarali olib borish uchun esa ushbu qonunlar rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilindi.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Loyiha JST shartnomalari va uning huquqiy asoslari bilan bog'liq masalalar bo'yicha davlat mulozimlarining malakasini oshirishga hamda bu borada texnik yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratadi. Joriy yilning yanvar oyida bu yo'nalishda ikkita seminar o'tkazildi.


"JSTga a'zo bo'lish jarayoni to'g'risida xabardorlikni oshirish" (2022 yil 27 yanvar) seminari doirasida ITSV va ushbu jarayonga jalb qilingan boshqa vazirlik va idoralar vakillari JSTning asosiy prinsiplari haqida bilib oldilar.

28-yanvar kuni bo'lib o'tgan "Idoralararo komissiya faoliyati va uning JSTga qo'shilish jarayonidagi roli" mavzusidagi seminarda esa Qozog'iston kabi JSTning boshqa a'zolari tajribasi taqdim etildi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Idoralararo komissiyasining bu yo'nalishdagi davom etayotgan islohotlariga ko'mak beradi.

Joriy yilning fevral va mart oylarida xizmatlar savdosi bo'yicha muzokaralar uchun bilimlarini mustahkamlash maqsadida bir qator texnik seminarlar o'tkazildi. Birinchi seminar 9-10-fevral kunlari tashkil etildi va distribyutorlik xizmatlariga bag'ishlandi.

Tadbir ishtirokchilari Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh kelishuv (GATS) ga muvofiq xizmatlar to'g'risida ma'lumot olishdi. Shu bilan birga distribyutorlik xizmatlarini taqdim etishning to'rtta usuli haqida axborot berildi.

Ikkinchi seminar 16 fevralda bo'lib o'tdi va O'zbekistonda telekommunikatsiya xizmatlari, xususan, sohaning asosiy islohotlari, uni liberallashtirish hamda ushbu islohotlarning maqsadlariga bag'ishlandi. Shuningdek, muzokaralar natijalari va majburiyatlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi haqida ma'lumot berildi.



Zharkin Kakimzhanova, xalqaro savdo va taraqqiyot, JSTga a'zo bo'lish bo'yicha xalqaro ekspert O'zbekiston vazirlik va idoralari vakillariga tashkilotga a'zo bo'lishda Qozog'iston tajribasi haqida ma'lumot berdi. Fotosurat: XSM

2022-yilning 25-fevral kuni GATS doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq xizmatlar bo'yicha seminar bo'lib o'tdi. Tadbir ishtirokchilari birgalikda patent tasnifini va W-120 standarti bo'yicha ekologik xizmatlarni anglash va ekologik xizmatlarni yetkazib berish usullarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bilan tanishdilar. Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan aloqalar ham seminardan o'rin oldi.

2022 yilning 2 mart kuni "GATS doirasida audiovizual xizmatlar va JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar" mavzusida seminar bo'lib o'tdi. Uning maqsadi milliy rejimga nisbatan spetsifik majburiyatlarni shakllantirishda ishtirokchilarni tayyorlash edi. Ushbu tadbir JST Kotibiyati bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Tadbir davomida audiovizual sektor va uning madaniy maqsadlar bilan aloqalari haqida ma'lumot berildi. Seminarda, shuningdek, ushbu sektorning Urugvay raundi doirasida qanday ko'rilganligi va GATS doirasida audiovizual xizmatlar hozirda qanday ko'rib chiqilayotgani haqida ma'lumot berildi.

Bundan tashqari, bizning loyihamiz davlat mulozimlariga savdo siyosati bo'yicha bilimlarni yaxshilashga yordam berdi.

2022 yilning yanvar-fevral oylarida uch nafar ITSV xodimlari Jahon savdo instituti Qishki akademiyasi doirasida quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilgan savdo siyosati bo'yicha haftalik kurslarda ishtirok etdilar:

- JSTning chegarada qo'llaniladigan chora-tadbirlar bo'yicha va savdo tartib-taomillarini soddalashtirish huquqi;
- JSTning dempingga qarshi va himoya choralari bo'yicha huquqi
- JSTning subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha huquqi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) da loyiha doirasida ishlab chiqilayotgan JST huquq va amaliyoti bo'yicha kursni tashkil etish davom ettirildi.. Birinchi chorak davomida JIDU professor-o'qituvchilari va talabalari uchun bir qator individual treninglar va ma'ruzalar bo'lib o'tdi.

Ushbu sessiyalarning maqsadi JIDU professor-o'qituvchilarini savdo vositalari, savdodagi texnik to'siqlar / sanitariya va fitosanitariya choralari, xizmatlar savdosi, savdo bilan bog'liq intellektual mulk huquqlari kabi asosiy sohalarda JSTning me'yoriy-huquqiy bazasi bilan tanishtirishdan iborat. Tadbirlar mart oyida boshlangan bo'lib, 2023 yilning yanvar oyigacha davom etadi. Ma'ruzalarning boshlanishi haqida JIDU press-relizida e'lon qilingan edi.

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

TBT va SFS bilan bog'liq qonunlarni qayta ko'rib chiqish, ularni JST qoidalariga bilan muvofiqlashtirish bo'yicha ish o'z yakuniga yetdi. Hozirda hukumat milliy qonunchilikni qayta ko'rib chiqish bo'yicha tavsiyalarni o'rganmoqda.

O'tgan chorak davomida Vazirlar Mahkamasi tomonidan texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonunlar ma'qullandi. Oziq- ovqat xavfsizligi to'g'risidagi qonun (bizning loyihamiz tomonidan qayta ko'rib chiqilgan) hali ham hukumat tomonidan ko'rib chiqilmoqda.

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihamizning asosiy maqsadi jamoatchilikning barcha qatlamlari orasida, jumladan, ayollar va yoshlarning JSTga a'zolik va jahon iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvidan keladigan foydalar haqida xabardorligini oshirishdan iborat.

Natijada, bu JSTga a'zo bo'lish bo'yicha hukumat va uning tarkibiy qismlari o'rtasida konsensusga erishishga yordam beradi. Shu bilan birga, muzokaralarda pozitsiyalarning yaratilish jarayonida tomonlar o'rtasida JST bo'yicha noto'g'ri tushunchalarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Loyiha JST tuzilmasining asosiy mavzularini va uning texnik tushunchalarini sodda tilda yozilgan axborot qo'llanmalarini ishlab chiqmoqda. Ushbu qo'llanmalar xususiy sektorning JST haqida xabardorligini oshirish, jumladan, a'zolikning oqibatlariga qaratilgan tadbirlarda ishtirokchilarga taqdim qilinadi. Qo'llanmalar, shuningdek, loyiha veb-saytida xususiy sektorni global iqtisodiy integratsiyaning afzalliklari haqida xabardor qilish uchun o'quv materiallari sifatida joylashtiriladi. ITSV bilan birgalikda xususiy sektor bilan hamkorlik qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ko'rib chiqilmoqda.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)